

DAVRIMIZNING OLAMSHUMUL MUAMMOLARI VA O' ZREKISTONNING KELAJAGI

*Madrahimov Elyorjon Islomovich,
Furqat tuman Kasb-hunar maktabi
Tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyodagi jahonshumul muammolar va ularni bartaraf etish xususida, O'zbekistonning kelajagi to'g'risida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Globallashuv, ekologik muammolar, Okean va kosmosdan foydalanish muammosi, demografik muammolar, resurslar muammosi, oziq-ovqat muammosi, telefondan foydalanish, terrorizm, Orol fojeasi.

“Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir”.

Olamshumul muammolar deganda butun sayyoramizga oid bo'lgan, butun insoniyatni tashvishlantirib, insonlar hayotiga xavf solib turgan muammolar tushuniladi. Global so'zi ham shu ma'noda ishlatiladi, ya'ni global - lotincha “globus” - “yer shari” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, butun Yer shariga, Ona zaminga tegishli muammolar degani. Davrimizning olamshumul muammolari - bu yechimi hamma tomonidan anglab yetilishini va barcha xalqlar, davlatlar kuchining birlashtirilishini talab qiladigan eng dolzarb dunyoviy muammolar majmuidir. Insoniyat azaldan inson - jamiyat - tabiat tizimida rivojlanib kelgan. Ammo odamlar tabiatga yillar mobaynida tobora ko'proq zarar yetkazmoqda. Natijada jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni o'zida aks ettirgan muammolar paydo bo'ldi.

Shartli ravishda ularni ikki guruhga bo'lish mumkin.

I guruh muammolari quyidagilar:

1. Ekologik muammolar;
2. Okean va kosmosdan foydalanish muammosi;
3. Insoniyatning haddan ortiq ko'payib ketishi - demografik muammolar;
4. Insoniyatni xom ashyo va resurslar bilan ta'minlash muammosi;
5. Oziq-ovqat muammosi;

Insoniyatni rivojlanib borishi, davlatlarning o'sishi, jamiyatning ichidagi har xil oqimlarning kurashi natijasida, shuningdek, jinoiy guruxlarning faoliyati bilan bog'liq holda rivojlanib borayotgan global muammolar. Shartli ravishda bu muammolarni ikkinchi guruh muammolar deb atash mumkin, ular quyidagilar:

1. Urush xavfi - insoniyatni urush xavfidan qutqarish muammosi;
2. Terrorizm va ekstremizm xavfi;
3. OITS muammosi;

4. “Odam savdosi” muammosi.

Bunday olamshumul muammolarni yana davom ettirish mumkin. Olimlarning fikricha 19 ta olamshumul muammolar mavjud. Ulaming asosiylari 9 ta bo'lib yuqoridagilar belgilangan. Hozirgi kunda yana yangicha muammolar vujudga kelmoqda:

Xalqaro miqyosda telefondan foydalanish va undan zararlanish muammosi, bunda asosan bog'cha, maktab yoshidagi bolalarning telefondan foydalanishi va bu ularning sog'lig'iga, nafaqat sog'lig'i, tarbiyasiga salbiy tasir etayotganini qayd etish kerak. Bu muammoni faqat o'qituvchilar emas, ota-ona, mahalla va keng jamoatchilik ishtirokida hal etish mumkin.

Xalqaro muqyosda “Ommaviy madaniyat” nomi bilan rivojlanib kelayotgan “Rok-Rep”, “Dunyodan rohatlanish g'oyasi”ni asos qilib olgan oqimlar faoliyati ko'pgina davlatlarda yoshlar tarbiyasini salbiy tomonga o'zgartirmoqda va bu yoshlarni jinoyat ko'chasiga boshlamoqda, yengil hayotga o'rgatmoqda.

Keling endi birinchi guruh olamshumul muammolarga to'xtalib ularni bartaraf etish borasida fikrlashsak: Ekologik muammo deganda suv, havo, yer bilan bog'liq holdagi muammolarni tushunamiz. Insoniyat uchun zarur bo'lgan chuchuk suv zaxirasi dunyo suvining atigi 3%ini tashkil etadi. Shunday holda chuchuk suvdan foydalanish davom etaversa, 2230 yilga borib chuchuk suv zaxiralari tugar ekan. Havo-kislorod insonning hayoti davomiyligini ta'minlovchi manba. Afsuski, insonlar yer sharining “Jonli o'pkasi” bo'lgan o'rmonlarni ham o'zlashtirib, yo'qotib yubormoqda. Sanoatning tabiatga zarari XX - asr ohirida 104-105 milliard tonnaga yetgan. (BMT ma'lumoti). *“Ekologik inqirozning oldini olish, unga qarshi kurashishdan ko'ra doimo bir necha chandon arzonroqdir”*, - degan edi nemis ekologi B.Grijimek.

Haqiqatdan ham insonlar o'z qilmishlarini tabiatga, insoniyat hayotiga qanchalik ziyon yetkazishini tushunib yetsa, har bir inson tabiatni asrash uchun bel bog'lasa, ekologik muammolarning oldini olish mumkin. Masalan: har bir inson yiliga kamida bitta ko'chatni ko'kartirsa, zavod fabrikalardan chiqayotgan chiqindilarni kamaytirilsa, ularni qayta ishlash dasturlari ishlab chiqilsa, atrof tabiiy muhitga zararsiz bo'lgan texnika vositalarini kashf qilinsa va ularni ko'proq tadbiiq etilsa ekologik xavflarning oldi olinar edi.

Insoniyat dunyo okeanidan “Buyuk geografik kashfiyotlar” davridan boshlab (XV-XVII asrlar) foydalanib kelmoqda. Okean insonlar uchun nafaqat transport yo'li, balki oziq-ovqat, neft, gaz, mineral homashyolar manbai vazifasini o'tamoqda. Afsuski ayrim davlatlarning okean ostida yadro raketalarini sinovdan o'tkazishi, okean ostida neft qazib olishda hatolikka yo'l qo'yishi (Meksika ko'rfazidagi 2010 yilgi halokat), neft tashuvchi tankerlarning halokati, insonlarning ko'plab chiqindilarni okean , dengizlarga chiqarishi , ayniqsa katta shaharlarning kanalizatsiya tizimi suvga , okeanlarga chiqarilishi, Atom reaktorlarining ocean va dengizlarda portlatilishi va

boshqa omillar dunyo okeaniga, uning tabiatiga katta zarar yetkazmoqda. Endi kelajakda insoniyat okeandan asosan “oziq-ovqat ombori “ sifatida foyda-lansa yaxshi bo'lar edi.

O'rta Osiyo mintaqasida ham 1980 yildan boshlab juda katta ekologik xavf- “Orol fojeasi” boshlandi. 1983 yildan boshlab Amudaryo va Sirdaryo suvlari Orolga deyarli bormay qo'ydi. Natijada uning 4 million gektar yerida sho'rxok cho'l paydo bo'ldi (Hozir 5-6 mln gektar). Orol atrofidagi 35 million aholi tuz bo'ronlari natijasida har hil kasalliklar: ichburug', oshqozon yara kasalliklari, kamqonlik kabi kasalliklarga duchor bo'lib, ozor chekmoqda. Horijiy ekologik xaritalardan bu hudud “O'lim uchburchagi” yoki “Tinch Chernobil” deb atalishi bejiz emas. O'zbekiston hukumati Orolni qutqarish borasida bir qator ishlarni amalga oshirdi. Sho'rxok cho'l tuz-qumlarini uchushini oldini olish maqsadida suvsizlikka chidamli saksovol kabi o'simliklarni ekish, o'rmon ho'jaliklarini tashkil etish ishlari amalga oshirilmogda. O'zbekistonda yangi yerlarni keng miqyosda o'zlashtirish to'xtatildi.

Ikkinchi guruhga kiruvchi olamshumul muammolarni bartaraf etish borasida 1-Prezidentimiz I. Karimov 1993 yil sentabrdagi BMTning 48- sessiyasida, 1995 yil oktabrdagi BMTning “50 yilligiga bag'ishlangan sammiti”da, BMT Bosh Assambliyasining “Ming yillik sammitida” 2000 yil sentabrda so'zlagan nutqlarida xalqaro terrorizm va narkobiznes bilan bog'liq muammolarni hal etish, milliy xavfsizlik, mintaqaviy xavfsizlikni takomillashtirish takliflari bilan chiqdi. Birinchi Prezidentimiz BMT, YXHT minbarlarida nutq so'zlab jahon hamjamiyati e'tiborini xalqaro terrorizm va ekstremizmning global muammoga aylanishiga, ayrim mamlakatlarning xalqaro terrorchi va ekstremistlarni tayyorlash “inkubatori”ga aylanib borayotganiga qaratgan edi.

Xalqaro miqyosda urush xavfini oldini olish borasida ham O'zbekistonning o'z qarashlari mavjud. O'zbekiston bu borada “O'rta Osiyo - Yadro qurolidan xoli zona” tashabbusi bilan chiqmoqda. Bu 1968 yilda imzolangan “Yadro qurolini tarqatmaslik” haqidagi shartnomaning hayotga tadbiiq etilishiga ko'maklashish vositasidir. Hozirgi vaqtda dunyoda 4ta yadrosiz hudud mavjud: Antarktida(1961- yil 23- iyundagi shartnoma), Lotin Amerikasida(1969- yil 25- aprel), Tinch okeanining janubiy qismida (1986- yil 11- dekabr) va Afrika qit'asida.

Hozirgi kunda xalqaro miqyosda harakat qilayotgan terroristlar, turli jinoyatchi guruhlar o'z maqsadlariga erishish uchun ommaviy qirg'in vositasi - biologik va kimyoviy qurollardan ham foydalanishga harakat qilmoqda. Bu qurollar qayerda bor bo'lsa, shu xudud va yaqin atrofdagi aholi hayotiga xavf solmoqda.

Xalqaro terrorchilar kuchini qirg'ish uchun birinchi navbatda noqonuniy xalqaro qurol - yaroq savdosini taqiqlash kerak. Ayrim davlatlarda qurol sotish va olib yurishning taqiqlanmagani o'sha davlatda jinoyatni ko'payishiga olib kelmoqda. Shuningdek, ommaviy qirg'in qurollariga ega bo'lishni butunlay taqiqlash kerak.

Huskyorlik - davr talabi. Hech qachon inson o'z taqdirini boshqa birovga ishonib topshirmasligi kerak, ayniqsa o'zga yurtda pasportini berib qo'ymasligi lozim. O'zbekiston rahbariyati migratsiyada yurgan fuqorolarimiz huquq va erkinliklarini yanada ko'proq himoya qilish maqsadida Rossiyaning yana 5ta shaharida o'z vakillik elchixonalarini ochishga harakat qilmoqda.

O'zbekiston xalqaro miqyosdagi global muammolarga befarq yemas. O'zbekiston ham, boshqa davlatlar ham bir biridan ayro xolatda jahon muammolarini birgalikda hal etmasdan turib, taraqqiy eta olmaydi. Birinchi Prezidentimiz I. Karimov aytganidek "Faqat zamon bilan teng qadam tashlayotgan, tez o'zgarayotgan dunyoning qat'iy shart va talablariga javob berishga intilayotgan mamlakatning kelajagi yorug' bo'lishi mumkin".

BMT Bosh kotibi A. Gutterish Orol muammosini o'z ko'zi bilan ko'rish maqsadida 2017-yil O'zbekistonga tashrif buyurdi. 10-iyun kuni oldin kattaligi bo'yicha dunyodagi to'rtinchi dengiz bo'lgan Orol dengizini borib ko'rdi. "Orol dengizining qurishi iqlim tufayli emas, suv resurslarining inson tomonidan noto'g'ri boshqarilishi natijasida ro'y bergan", - dedi A. Gutterish, qachonlardir port shahar bo'lgan, hozir "kemalar qabristoni"ga aylangan Mo'ynoq shahrini ko'rgandan so'ng.

Shuningdek, "...iqlim o'zgarishi munosabati bilan uning salbiy ta'sirini kamaytirishga oid qat'iy choralar ko'rilmasa, bu fojia butun dunyo miqyosida ko'payadi", -- deya ogohlantirdi.

BMT Bosh kotibi butun dunyo aholisini Orol fojeasidan t'g'ri xulosa chiqarishga va uning takrorlanmasligi uchun iqlim bo'yicha Parij kelishuviga butun xalqaro hamjamiyatni jalb qilishga chaqirdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 1993-yilda tuzilgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasiga Turkmaniston raislik faoliyatini yuksak baholadi. Shuningdek, bu jamg'armaga Qirg'iziston davlati ishtiroki tiklangani mintaqa davlatlarining katta yutug'i ekanini ta'kidladi.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda O'zbekiston yoshlari dunyoda bo'layotgan o'zgarishlardan, yutuqlardan, munozarali voqea-hodisalardan to'g'ri xulosa chiqara olishlari juda muhim. Yangi zamon texnika va texnologiyalarini o'zlashtirib, faqat o'zlashtiruvchi bo'lib qolmasdan yangi g'oyalar, yangi kashfiyotlar yaratuvchisi bo'lishga intilishlari kerak.

Davlatimizdan ham dunyo bozorini egallagan kompaniyalar, firmalar chiqishiga harakat qilishimiz kerak, buning uchun albatta yoshlarimizga ilm-fan yo'lidan borib, katta-katta kashfiyotlar yaratishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishimiz muhim.

Фойдаланилган адабиётлар ро‘yxати:

1. Azizov Sh. “Shaxs va jamiyat” Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun darslik, -T., “Sharq”, 2010.
2. I.A.Karimov. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». T., «O'zbekiston»,1998.
- 3.<https://kun.uz>